

Mahalla - besh tashabbus beshigi respublika ko'rik-tanlovi

Image not found or type unknown



Mahalla - besh tashabbus beshigi respublika ko'rik-tanlovi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Mahalla - besh tashabbus beshigi" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish bo'yicha Nizomga asosan Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan tanlov e'lon qilinadi.

Ko'rik-tanlovda Respublikada faoliyat olib borayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirok etadi.

Mazkur tanlov quyidagi 3 ta bosqichda tashkil etiladi:

birinchi bosqich – tuman va shaharlar miqyosida;

ikkinchi bosqich – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida birinchi bosqich g'oliblari o'rtasida;

uchinchi bosqich – Respublika miqyosida ikkinchi bosqich g'oliblari o'rtasida dekabr oyida o'tkaziladi.

Tanlovni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni xalq harakatiga aylantirish;

beshta muhim tashabbusning mahallalarda amaliyotga joriy etilishini yana-da jonlantirish va bu borada faollik ko'rsatayotgan mahallalarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish;

ning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodlarini yuzaga chiqarish, ularni jismoniy chiniqtirish, sport bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish hamda ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni mahallalarda tashkil etishga ko'maklashish.

Ko'rik-tanlovning respublika bosqichida faol ishtirok etgan ishtirokchilar quyidagi nominatsiyalar bo'yicha taqdirlanadi:

“Birinchi tashabbus bo'yicha eng faol mahalla”

“Ikkinchi tashabbus bo'yicha eng faol mahalla”

“Uchinchi tashabbus bo'yicha eng faol mahalla”

“To'rtinchi tashabbus bo'yicha eng faol mahalla”

“Beshinchi tashabbus bo'yicha eng faol mahalla”

Shuningdek, tanlov ishtirokchilari “Besh tashabbus bo'yicha eng namunali oila” nominatsiyasi bo'yicha ham taqdirlanadilar.

Tanlovda qatnashmoqchi bo'lganlar tanlov e'lon qilingan kundan e'tiboran xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi kotibiyatlari nomiga ariza beradilar.

Ishtirokchilar o'z arizalariga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- ishtirokchilar to'g'risidagi umumiy ma'lumot (mavjud bo'lsa pasporti)
- Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan beshta muhim tashabbus bo'yicha qabul qilingan tegishli hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risida ma'lumotlar;
- beshta muhim tashabbus doirasida olib borilgan faoliyatiga oid materiallar (ma'lumotlar, hisobotlar, bayonnomalar, dasturlar, loyihalar, foto, albom va hokazolar);
- beshta muhim tashabbusni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilgan

ishlarni aks ettiruvchi 5 daqiqadan oshmagan videorolik (sifati yuqori, DVD formatida);

- ommaviy axborot vositalarida beshta muhim tashabbusga oid chop etilgan maqolalar, televideniye yoki radioda chiqishlarni asoslovchi hujjatlar;
- ishtirokchilar tanlovga doir boshqa qo'shimcha materiallar ham taqdim etishi mumkin.

Arizalar tegishli hududdagi xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi kotibiyatlariga yuboriladi.

Ishtirokchilar tanlovga doir boshqa qo'shimcha materiallar ham taqdim etishlari mumkin.

G'olib deb topilgan ishtirokchilar I, II, III darajali diplom va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash Vazirligi, hamkor tashkilotlar hamda homiylarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

